

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

ISHLAB

• Islom Karimov nomidagi O‘zbekiston milli universiteti

• Toshkent nashrik shakari

TARDIOLANGAN YU AMALGA KORTILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil
22-iyul -soni buyrug‘i bilan tardiolangan.

JORIY ETILGAFI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil
22-iyul -soni buyrug‘i bilan tardiolangan.

**60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka
talablari**

Markaz Malaka mukofoti “Oliy ta’lim davlat ta’lim markazlari, Aqosiy-oddalar”, “Oliy
ta’lim davlat ta’lim markazlari, Oliy ta’lim yo‘nalishining malaka
ta’limi” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim yo‘nalishining malaka
ta’limi” daurida olib turadigan fikr bilan tashriflangan muvofiq ishlab chiqilgani
hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil
22-iyul -soni buyrug‘i bilan tardiolangan.

Toshkent-2023

ЎЗР ОУМТВ

Бўйруқ № 399

7 08 2023 йил

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.
- “Toshkent issiqlik elektr stansiyalari” AJ

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7»
08 dagi 394 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

1.2.1	60710900 - Energetika teziniyalari va energoanalitika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha takliflar klasby tasdiqlarning shakllari
1.2.2	60710900 - Energetika teziniyalari va energoanalitika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha takliflar klasby tasdiqlarning shakllari
1.2.3	60710900 - Energetika teziniyalari va energoanalitika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha takliflar klasby tasdiqlarning shakllari
1.2.4	60710900 - Energetika teziniyalari va energoanalitika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha takliflar klasby tasdiqlarning shakllari
1.2.5	60710900 - Energetika teziniyalari va energoanalitika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha takliflar klasby tasdiqlarning shakllari
2.1	Ummumiy ta’lim standartlari
2.2	Kasbiy korrupsiyaning qurʼaniy uslublari
2.3	Ummumiy va kasbiy konjunkturalardagi mazkur malaka standartlari
2.3.1	Kvalifikator
2.3.2	60710900 - Operativ operatsiyalar va tashqardit ta’lim yo‘nalishi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

bet

1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	4
1.2.3. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1 Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2 60710900- Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklari bo‘yicha soatlar va kreditlar:.....	9
2.3.3 60710900- Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	10
Bibliografik ma’lumotlar.....	11
Kelishuv varag‘i	12

1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki,sirtqi va masofiy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi **60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit – fan va texnika sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u energiyani ishlab chiqarish, o‘zgartirish, uzatish, taqsimlash va iste’mol qilish va ulardan foydalanishdagi samaradorligini baholash, energiya samarador tadbirlarni ishlab chiqish va ularni texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash, shuningdek texnologik jihozlar va komplekslarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanadigan energiyaning solishtirma sarfini kamaytirishga, atrof muhitga energiya iste’molini salbiy ta’sirini kamaytirishga yo‘naltirilgan va energiya resurslarini tejash hamda energiya iste’mol qiluvchi qurilimlar va binolarni energiya auditini o‘tkazish, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- energiya iste’molchilar;
- energiya ta’minoti tizimida ishlatiladigan texnologiyalar va jihozlar;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta’minalash vositalari; kasb-hunar kollejlaridagi o‘quv-tarbiya jarayoni.

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatlari boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:

- muhandislik - qidiruv va loyiha-konstrukturlik faoliyati;
- ishlab chiqarish – texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- foydalanish-servis faoliyati.

1.2.4. 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60710900 – *Energiya tejamkorligi va energoaudit* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihiy-konstrukturlik faoliyatida:

- energiya tejamkor qurilma va texnologik sxemalarni loyihalash, optimal va ratsional texnologik parametrlarni tanlash, jihoz va qurilmalarni hisoblash qobiliyatları;
- tajribaviy va sanoat energotejamkor kurilma va jixozlarni, energotejamkor qurilma namunalarini eksperimental tadqiqotlash va o‘lchash vositalari va metodlarini tanlash, namunaviy metodikalar bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish.
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlarini o‘zlashtirish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- muhandislik ishi jabhasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirop etish;
- obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta’minlash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo‘llash;
- kasbiy etika qoidalariiga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan qurilish ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish ko‘nikmalar.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat obyektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, ratsional texnologik jarayonlarni tanlash bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta’lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma’lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikatsiyalarni tuzish uchun ma’lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Foydalanish-servis faoliyatida:

- muhandislik ishi ta’lim sohasiga tegishli obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni sinash, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini tashkil etish;
- muhandislik ishi ta’lim sohasiga tegishli ob’ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo‘llash.

**2. 60710900-Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar talablar**

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy biliqlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- energiya tejamkorligi soxasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- energiya iste’mol qiluvchi texnologiyalar va qurilmalarni energiya samaradorligini baxolash, energiya tejamkor choralarini ishlab chiqish va ularni texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini xisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- energiya iste’mol qiluvchi texnologiyalar va qurilmalar va bino va inshoatlarni energetik auditini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatSION modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihibiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigm va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;
 - energiya iste'mol qiluvchi qurilmalarini samarali parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lism;
 - amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigm va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;
 - energiya iste'molchilarning energiya ta'minotini loyihalashtirishda texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilishni bilish;
 - kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lism;
 - energiya ta'minoti tizimida va ulardan foydalanishda energiya resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilishni bilish;
 - energiya tejamkorligi sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarini o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lism;
 - energetika tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilish;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahshi ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarus bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallahshini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lмаган fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lмаган qismi taqsimlanishi mumkin.

Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lмаган qismi taqsimlanishi mumkin.

Tanlov fanlar ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtadan kam bo'lмаган o'rmini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

3. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrular tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot toplash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikatsiya. Muhandis-energoauditor

2.3.2. 60710900- Energiya tejamkorligi va energoaudit ta'lim yo'naliishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklari bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4950	165
Tanlov fanlari	1680	56
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

1.08	TTAT1104	Teknik dizayncha qisqor teknologiya	300	
1.09	TKC11104	Mashinadexha va komponentalar	220	
1.10	ME17404	Nerologiya va shahar fanofti	220	
1.11	ET11104	Sohva hujumchilik va menejment	100	
		Fikriga	20	
		Hukmga	20	
		Hayot fikrligi hujumchilik	100	
1.13	MT2104	Mehanika I	100	
1.15	ED1ABT10411	Energiya o'sebi va asboblar va boshqanchi	330	
1.17	TYCQ1206	Yerilish jamiati va yug'ish qurilishi	150	
1.18	TT13410	Izohlik texnika	370	
1.19	TKD13611	Elektrik energetika muriqalar	130	
1.20	TKXH11506	Elektronika, elektronika texnologichka va radioelektronika	180	
1.21	TMDC114706	Kontrolchi va emasbil energiya muriqalar	180	
1.22	TTJQ14509	Lazernik, radioelektronika, xarayonetkilar va qurilish	270	
1.23	EM14511	Energetika menedzhment	230	
1.24	TKA-A14509	Elektronika texnologichka muriqalar	270	
1.25	TKT11206	Energiya tejamkorligi kimchi	120	
2.00		Tanlov fashari	100	
2.01		Tanlov fanlari (O'sebi fan)	100	
		Mehanika muriqalar	220	
		Yalovchi davlat attestatsiyasi	150	
		Jami	720	
		Jami	730	

2.3.3. 60710900- Energiya tejamkorligi va energoaudit ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyl yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4950	165	
1.01	O'RT11104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM11204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT12408	Xorijiy til 1,2	240	8	2,4
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM11315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O'EYT11104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	TTAT11104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.09	MKG11104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.10	MS12404	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	4
1.11	SIM14804	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	8
1.12	FAL13604	Falsafa	120	4	6
1.13	EKA13504	Ekologiya	120	4	5
1.14	AFX14704	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	7
1.15	M12404	Mexanika 1	120	4	3
1.16	EO'ABT12411	Energiya o'lchov asboblari va boshqarish tizimlari	330	11	3,4
1.17	YYYQ12305	Yoqilg'i yonishi va yoqish qurilmalari	150	5	3
1.18	IT12410	Issiqlik texnikasi	300	10	3,4
1.19	IEQ13611	Issiqlik energetik qurilmalar	330	11	5,6
1.20	IVXM13506	Isitish, ventilyatsiyalash va xavoni ma'romlash	180	6	5
1.21	IMEM14706	Ikkilamchi va muqobil energiya manbalari	180	6	7
1.22	ITJQ14809	Issiqlik texnologik jarayonlari va qurilmalari	270	9	7,8
1.23	EM14811	Energetika menedjmenti	330	11	7,8
1.24	BEAA14809	Bino energetik audit asoslari	270	9	7,8
1.25	ETK11206	Energiya tejamkorlikga kirish	180	6	2
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	
2.00		Tanlov fanlari (9 ta fan)	1680	56	1,3,4,5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyot	420	14	4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	720	24	
		HAMMASI	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv davri, energiya tejamkor texnologiyalar, energiya samaradorlik, energiya audit, energiya tejamkor choralar, sifat nazorat, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilarini
ISHLAB CHIQILGAN:**



**Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor prof. S.M.Turabdjanov

2023 yil « 02 » 02

“Issiqlik elektr stansiyalarini Ad

Boshqaruva raisi B.I. Jurayev

2023 yil « 03 » 03

M.O.



KELISHILDI:

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil

07

M.O.

Toshkent issiqlik elektr markazi filliali

Direktori

U.N. Shamsutdinov

2023 yil

07

M.O.



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini**

**mexanizatsiyalash muhandislari instituti ”
Milliy tadqiqot universiteti**

Rektor

prof. B. S. Mirzayev

2023 yil

07

M.O.

**O'zR FA Energetika muammolari
instituti**

Direktori

X. M. Muratov

2023 yil

07

M.O.



**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka
talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari
va asosiy kadrlar iste’molchilar o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“7” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi B.I. Jurayev, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori prof. B.S. Mirzaev, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M. Turabdjanov birqalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilar tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatalgan tartibda tasdiqqa tavsija etish mumkin.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi   B.I. Jurayev

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti rektori, professor   B.S. Mirzayev

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor   S.M. Turabdjanov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan
malaka talablari va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq..

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobi yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarni ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar

bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatlari tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash*tizimi* qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti
rektori, professor**



B.S. Mirzayev

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab
chiqilgan 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari
va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 10 iyuldagagi PQ-4779 “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqr bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob’ektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib

chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilar bo'lган korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710900 – Energiya tejamkorligi va energoaudit ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lism o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarни o'z ichiga olgan va sifatlari tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ
Boshqaruv raisi**

B.I. Jurayev

